

SHEKSPIRNING "ROMEO VA JULIETTA" TRAGEDIYASIDA KONFLIKT

Uzakova Saltanat Paraxatovna,

Qoraqalpoq davlat universiteti,

Qoraqalpoq adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18228464>

Annotatsiya: Buyuk Angliya yozuvchisi Shekspir ijodi dunyoni lol qoldirgan yirik, terang manoli asarlarga boy. Ijodkorning "Romeo va Julyetta" tragediyasida muhabbatga chin berilgen oshiqning tag'diri ifodalangan va bu tragediya dunyo sahnalarida bugungi kungacha tamosha qilinib kelinmoqda. Tragediya syujetida berilgan konfliktlar va undagi ikki qaharmon oshiqning muhabbat yo'lidagi qurbon bo'lishi asar voqealaridagi ziddiyatli sahnalarning yechimini ifodalab ko'rsatgan. Biz bu maqolada "Romeo va Julyetta" asarida konfliktlarning badiiy jihatdan qo'llanilishini o'rganamiz.

Kalit so'zlar: badiiy asar, konflikt, badiiy obraz, tragediya, kompozitsiya, kulminatsiya, syujet, prolog, avtor, badiiy obraz.

Аннотация: Творчество великого английского писателя Шекспира изобилует произведениями, поразившими мир и наполненными глубоким смыслом. Трагедия «Ромео и Джульетта» повествует о судьбе влюбленных, искренне преданных любви, и эта трагедия до сих пор ставится на мировых сценах. Конфликты в сюжете трагедии и жертвенность двух героев ради любви представляют собой разрешение противоречивых сцен в событиях произведения. Мы будем изучать конфликт в произведении «Ромео и Джульетта» как средство для качественного изучения материала.

Ключевые слова: произведение искусства, конфликт, художественный образ, трагедия, композиция, кульминация, сюжет, пролог, автор, художественный образ.

Abstract: The work of the great English writer Shakespeare is rich in large, deep-rooted works that have amazed the world. The creator's tragedy "Romeo and Juliet" depicts the fate of lovers who are truly devoted to love, and this tragedy is still being watched on the world's stages today. The conflicts presented in the plot of the tragedy and the sacrifice of the two heroes in the path of love in it represent the resolution of the conflicting scenes in the events of the work. In this article, we will study the artistic use of conflicts in the work "Romeo and Juliet".

Keywords: work of art, conflict, artistic image, tragedy, composition, culmination, plot, prologue, author, artistic image.

Kirish. Har qanday badiiy asar syujetida konflikt asosiy o'rin egallaydi. Chunki badiiy asar konfliktisiz yozilganida, uning badiiyligi pasayadi va qahramonlarning tasviri ham ochilmaydi. Shekspirning "Romeo va Julieta" asarining mavzusi konfliktidan unumli foydalanishi va asar qahramonlarining obrazini go'zal tasvirlashda tragediyaning badiiyligini boyitgan. Biz bu tragediyada qo'llanilgan konfliktlar haqida so'z yuritamiz. Shekspirning ushbu tragediyasining eng yaxshi sifati shundaki, asarda qo'llanilgan konfliktlar va dialoglar qahramonlarning xarakterini o'zgartirib, asar syujetining davomli ziddiyatlar bilan shakllanishiga olib keladi. Demak, biz tragediyada konfliktning qaharmon obrazini yaratilishida vaqt masofasi va asar syujetining yechimini yozuvchi qanday tasvirlab berganligini tahlil qilamiz.

Adabiyotlar tahlili. Qoraqalpoq tilining IV tomlik izohli lug'atida konflikt atamasiga quyidagicha izoh beriladi: "Konflikt – bir-biriga qarshi bo'lgan qarashlarning to'qnashuvi,

tushunmovchilik, janjal” [8]. Taniqli adabiyotshunos olim S.Axmedovning asarida: “Konflikt – (lotincha “tortishuv”) badiiy asarga qatnashuvchi qaharmonlar harakatining asosin belgilovchi kurash” [2] deb keltiriladi. Shuningdek, atoqli nemis shoiri I.Bexer Konflikt haqida quyidagicha falsafiy fikrlarini aytadi: “Badiiy asarda zarur ziddiyatni yuzaga keltiradigan narsa nima? – Konflikt. Hayotda, adabiyotda... bizni oldinga harakatlantiruvchi narsa nima? – Konflikt!” [4]. Taniqli o‘zbek adabiyotshunos olimi T.Boboev konflikt haqida bunday baholi fikrlarini bildiradi: “Konflikt syujetni harakatka keltiruvchi asosiy kuch. Agar syujetni avtomobil deb qarajak, konflikt uning dvigateli; syujet tashqi tasvir bo‘lsa, konflikt uning ichki oqimi. Yozuvchi badiiy syujet orqali belgili bir davrning ijtimoiy konfliktlarini tasvirlaydi, unga o‘z munosabatini bildiradi, qaharmonlar xarakterini ochadi, estetik idealni olg‘a suradi. Hayotdagi qarama-qarshilikni va badiiy asardagi konfliktni bir narsa deb hisoblash mumkin emas. Hayotdagi konflikt – ijtimoiy hodisa, asar syujetining konflikti – estetik hodisa hisoblanadi. Badiiy konflikt ijtimoiy konflikt asosida yaratilsa ham, ular bir-biridan ajralib turadi. Badiiy konflikt yozuvchi tarafidan hayotdagi qarama-qarshiliklarning qayta ishlangan, estetik ideal ruh bilan gavdalangan turi” [3]. Shuningdek, o‘zbek olimi I.Sulton “Konflikt bosh qaharmon yoki qaharmonlarning o‘z maqsadlarini amalga oshirish yo‘lida uchragan to‘siqlarini yengish jarayoni” [5] deb yozadi. Professor Q.Jarimbetov: “Har qanday syujet konflikt bo‘lmasa rivojlanmaydi” [7] – deb ko‘rsatadi. Haqiqatdan ham, asar qaharmonlarining to‘qnashuvi natijasida konflikt kelib chiqadi. Ushbu konfliktidan paydo bo‘lgan yechimning qanday yakunlanishi voqeaalarni rivojlantirib boradi. Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlari biz tahlil qilmoqchi bo‘lgan “Romeo va Julyetta” asaridagi konfliktlarni o‘rganishimizda katta yordam bo‘ladi. Shuning uchun biz, ularning ilmiy qarashlari, fikrlaridan foydalanib, konflikt haqida metodologik jihatdan to‘xtalib o‘tdik. Shu o‘rinda ulug‘ grek olimi Aristotelning: “tragediyaning boshlanishidan (qaharmonlarning) baxtdan-baxtsizlikka yoki baxtsizlikdan-baxtga qaray o‘tish harakatlari bo‘limi – tuyun deb nomlanadi, mana shu o‘tish boshlangan o‘rindan (asarning) yakunigacha bo‘lgan bo‘lim – yechim bo‘lib hisoblanadi” [1] – degan fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinli. Chunki, biz o‘rganmoqchi bo‘lgan “Romeo va Julyetta” tragediyasidagi konfliktlarda ham Aristotelning yuqorida aytgan fikrlari o‘z tasdig‘ini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda adabiyotshunoslikka xos tahlil usullaridan foydalanildi. Jumladan, asarni **badiiy-tahliliy, strukturaviy-kompozitsion, qiyosiy** va **interpretatsion** metodlar asosida o‘rganish amalga oshirildi. “Romeo va Julyetta” tragediyasidagi konfliktlar syujet, kompozitsiya, kulminatsiya va yechim bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilindi. Asardagi asosiy va ikkilamchi konfliktlar qahramonlar xarakterini ochishdagi badiiy vosita sifatida ko‘rib chiqildi. Shuningdek, Aristotelning tragediya haqidagi nazariy qarashlari hamda zamonaviy adabiyotshunos olimlarning konfliktga oid ilmiy fikrlari metodologik asos sifatida qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida matnli tahlil va mantiqiy xulosalash usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. "Romeo va Julyetta" tragediyasi V parda, XXIV kartinadan iborat bo'lib, uning qurilishi prologdan boshlanadi. Muallif prologda Veronadagi bir-biriga dushman ikki badavlat oilaning azaliy qarama-qarshiligi va ularning farzandlari Romeo va Julyettaning sevgi yo'lida qurbon bo'lishini aks ettirib ko'rsatadi. Tragediyaning bunday boshlanishi uni yaratuvchining yuksak mahoratini belgilaydi. Shuningdek, prologning bunday keltirilishi o'quvchini asardagi voqealarning izchilligini va konfliktlarning yechimini bilishga qiziqtirib boradi. Tragediyaning to'liq syujetida bir-biriga dushman bo'lgan Montekki va Kopuletti oilalarining farzandlari Romeo va Julyetta o'rtasidagi muhabbat munosabatlari barcha voqealarni jamlab, bir-biriga qarama-qarshi ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Tragediyadagi dastlabki konflikt Kopulettilarning xizmatkori Samson va Grigoriyning, Montekki xizmatkori Abram bilan o'z beklarini (xo'jayinni) bir-biridan ustun qo'yib tortishishi bilan boshlanadi. Bu voqea I parda I kartinasi bo'ladi. Masalan:

Grigoriy: Siz janjal chiqarmoqchimisiz, taqsir?

Abram: Janjal deysizmi, taqsir? Yo'q, taqsir!

Samson: Agar sizlar janjal chiqarishni istasangiz, men tayyorman! Mening begim (xo'jayinim) siznikidan kam emas.

Abram: Ziyoda ham emas!

Samson: Ziyoda, taqsir!

Abram: Yolg'on! [6]

Bu dialoglarda ikki dushman oila xizmatkorlarining qarama-qarshi fikrlarini muallif badiiy tarzda, o'quvchiga tushunarli qilib ko'rsatadi. Xizmatkorlarning shovqin-suronidan Montekkiyning jiyani Benvolio va Kopuletti xonimning jiyani Tibalt kelib, ular ham aralashib janjalni kuchaytiradilar. Shundan so'ng ikki dushman xonadon egalari Montekki va Kopulettilar ham yetib keladi. Ular ham urushni kuchaytirgan vaqtda Verona begi Eskal kelib, janjalning sabablarini aniqlab bo'lib, ikki dushman xonadonga bunday deydi: "agar, endi tartibni buzsangiz, tinchlikni buzgan gunohkorlar-deb qurbon qilinasizlar" - deb shart qo'yib, janjalni to'xtatadi va ularga jarima solib, kelishuv tuzadi. Shunday qilib, bu yuz bergan tugunning yechimi Eskalning tuzgan kelishuvi bilan yakunlanadi.

Tragediyaning I parda V kartinasi Kopulettilarning uyida bo'layotgan yig'inda ikki oshiq Romeo va Julyetta bir-birini ko'rib, qalbida muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi va shu yig'inda Tibaltning Romeoga nisbatan nafrat, dushmanlik harakatlari bilan yana bir tugun yuzaga keladi. Bu tugunning izi III pardaning I kartinasi Tibalt bilan Merkusio o'rtasidagi janjal bilan davom etadi. Merkusio Verona bekasining singlisi va Romeoning do'sti edi. U azaldan Tibaltning maqtanchoqligini, uni ko'rgan joyda kamsitishini, Romeoni qul deb masxara qilishini sira yoqtirmasdi. Shuning uchun, u Tibalt bilan kurashishdan qaytmaydi, Benvolio ham "tortishuvni to'xtating, hamma qarab turibdi" - degan so'zlariga ham quloq solmay, qalbida Tibaltga nisbatan nafrat tuyg'ulari kuchayib, qo'lidagi qilichini unga qarata qattiq ko'taradi. Romeo ham kelib, bu janjalni to'xtatishga urinib, Tibaltga: Sen

mening yaqinimsan, familiyang Kapuletti mi, (Jyulettaning akasi bo'lgani uchun) - deb uni do'stlikka chaqirmoqchi bo'ladi. Lekin Tibalt Merkutsioning qilichini ko'tarib, urush boshlaganiga g'azablanib, unga qilichini qattiq tekkizib, o'ldiradi. Merkutsio qattiq yaralanadi va:

Yaralandim!...

Menga omin! O't tushsin xonadoningga!

U ketdimi? Yaralanmay, butun ketdimi? [6]

Yozuvchi Romeoning ichki dunyosini ochib ko'rsatishda bu dialoglardagi keskin fikrlar bilan uning do'sti Merkusio va dushmani Tibaltga bo'lgan his-tuyg'ularini yaqqol aks ettirib ko'rsatadi. Bu boshlangan tugunning yakuniga keladigan bo'lsak, do'stining o'limidan g'azablangan Romeo endi qizishib, Tibalt bilan urishib, uni oxir-oqibat o'ldiradi. Asarda konfliktlarning bunday rivojlanib borishi albatta, o'z yechimini kutib turadi. Shunday qilib, bu keskin yuz bergan mojarolarning yechimi Verona bekining bu nizolarning sabablarini aniqlab bo'lgach, Romeoni Mantuyaga surgun qilishi bilan yakunlanadi. Demak, bu tragediyadagi konfliktlar yuqorida keltirilgan olimlarning fikr va qarashlariga xos, asar syujetining rivojlanish yo'nalishlarini yaqqol aks ettirgan. Aristotel o'zining "Poetika" asarida "tragediyada voqeani va qilmishni aniq ko'rsatish kerak" – degan edi. Biz tahlil qilgan bu tragediyada voqea va qilmish aniq tasvirlanganini ko'ramiz. Ya'ni, asardagi salbiy qahramon Tibalt o'zining salbiy qilmishlari natijasida baxtsizlikka uchraydi. Yana Aristotelning ko'rsatganidek: "odamlar o'z qilmishi, harakatlari bilan baxtli yoki baxtsiz bo'lib chiqadi". Uning bu ta'riflari ham yuqorida aytganimizdek haqiqatga to'g'ri keladi. Demak, tragediya bu - baxtsizlikni ko'rsatuvchi va uning sabablarini fosh etuvchi harakatlar bilan yuz beradigan haqiqiy sahna asari namunasidir. Albatta, uning rivojlanish cho'qqisini esa, yuqorida olimlarning asarlaridan keltirib o'tganimizdek, voqelikdagi konfliktlar belgilaydi. Biz tahlil qilgan tragediyadagi tugun ustiga tugun qo'shilishi va konfliktning keskin rivojlanishi – Aristotelning: "Tragediya - iloji boricha bir kunlik yoki undan ortiqroq vaqt doirasida bo'ladi" - degan fikrlarini ham tasdiqlaydi. Chunki "Romeo va Julyetta" tragediyasidagi konfliktlar bir vaqt doirasida, ketma-ket keskin yuz berganligini ko'rishimiz mumkin. Shekspir bu tragediyasida o'sha davr ruhini, ayniqsa, muhabbat yo'lidagi qurbonlikni badiiy konfliktlarga jamlab, o'quvchi qalbiga o'chmas katta ta'sir qilgan.

Tragediyadagi keyingi konflikt III pardaning V kartinasida, Julyetta va uning ota-onasi o'rtasida yuzaga keladi. Julyettaning otasi Kapuletti o'z qizini Romeodan uzoqlashtirish va akasining o'limidan g'am chekmasligi uchun graf Parisga turmushga bermoqchi bo'ladi. Graf Paris Verona knyazining yaqin qarindoshi, u Julyettani yoqtiradi va uni ota-onasidan oldindan so'rab yurgan edi, endi fursatdan foydalanib, unga uylanmoqchi bo'ladi. Bunga Julyetta qattiq qarshilik bildiradi. Chunki u o'zining sevgilisi Romeoning vijdoni pokligini biladi va u bilan turmush qurishga oldindan kelishib, qasam ichgan edi. U akasi Tibaltning o'z qilmishlari oqibatida o'limga mahkum etilganini tushunib yetadi, uni o'z sevgilisi Romeo

o'ldirsa ham, o'z muhabbatiga sodiq qoladi. Shuning uchun Julyetta o'z qalbiga quloq solib, Parisga turmushga chiqmasligini ota-onasiga aytadi. Buni eshitgan otasi g'azablanadi.

Shekspir Julyetta va ota-onasi o'rtasidagi bu keskin munosabatlarni ko'rsatish orqali o'sha davrga xos bo'lgan muhabbatga erishishdagi qarama-qarshilikni juda ta'sirli satrlar bilan bergan. Shu fojia singari ikki oshiqning o'z muhabbatiga erisha olmay, ota-onasining qarshiligiga uchraganlar bizning bugungi turmushimizda ham uchraydi. Shuning uchun ham Shekspirning bu tragediyasi badiiy estetik didi va ijtimoiy keskinlikni tasvirlashi bilan dunyoga mashhur muhabbatni ulug'lovchi eng qimmatli asarga aylangan. Endi tragediyadagi yuqorida boshlangan tugunning yechimiga to'xtaladigan bo'lsak, Julyetta nima qilishini bilmay, darhol cherkovga borib, ruhoniy Lavrentiy bilan maslahatlashishga qaror qiladi. IV parda I kartinasi Julyetta cherkovga kelib Lavrentiy bilan maslahatlashadi. Julyetta Parijga turmushga chiqishni istamasligini va bu azobdan tezroq qutulishini Lavrentiydan iltimos qiladi. Lavrentiy Julyettaning qalbida Romeoga bo'lgan sof muhabbatini ko'rib, unga: "Muhabbating uchun o'limga ham tayyor bo'lsang, qizim, men senga bir uxlatadigan sirli bir dori beraman, buni ichib sen yolg'on o'lim holatida bo'lasan, ota-onang, hamma bunga ishonadi, sen uyg'onaman deguncha, men Romeoga xat yuborib, sening yoningga chaqiraman. Keyin u bilan Mantuyaga ketib, bu azoblardan qutulasan. Hozircha to'yga roziligingni bildir va o'zingni erkin tut - deb maslahat beradi. Julyetta shartga rozi bo'lib va ko'ngli to'lib uyiga qaytadi. II kartinada Julyetta ota-onasiga kelib, cherkovga borib tavba qilganini aytadi va to'yga roziligini bildiradi. III kartinada Julyetta onasi va xizmatkoriga o'z xonasida yolg'iz qoldirishlarini so'rab, sirli dorisini ichib uxlab qoladi. Lavrentiy aytganidek, dori ta'siridan Julyetta o'lik holga tushadi va V kartinada Julyettaning xonasiga kelgan xizmatkori uning jonsiz holda yotganini ko'rib, baqirib yuboradi.

Shunday qilib, III pardaning V kartinasi boshlangan tugunning yechimi Julyettaning zahar ichib, yolg'ondan qurbon bo'lishi bilan tugaydi. Muallif yuqorida keltirilgan satrlari bilan ham yana bir keskinlikni hosil qilib, asar syujetining rivojini ta'minlagan. Buni Kapuletti va Lavrentiyning dialoglaridan ko'rishimiz mumkin. Tragediyaning V parda I kartinasi Romeoning yoniga xizmatkori Baltazar kelib, Julyetta haqidagi qayg'uli xabarni yetkazadi. Tragediyaning yakuni asardagi konfliktlarning hal qiluvchi o'rnini belgilaydigan Verona bekining quyidagi fikrlari bilan tugaydi:

Hamangizga tong keltirdi motamli tur.
Hatto chiqishni istamas g'azabli quyosh.
Yuring, hali kengash qilib o'ylash kerak.
Kinga bizdan xatolik, kimlarga jazo!
Romeo va Julyettaning qissasidan ham, -
G'amli qissa ko'rgan emas tarixda olam! [6]

Darhaqiqat, butun olamga mashhur bu tragediyaning qalblarga quyilib, mangu saqlanishi – muhabbatning ulug'vorligini ko'rsatibgina qolmay, undagi badiiy yaratilgan

konfliktlar asar mazmunining rivojlanish cho‘qqisini, ayniqsa, o‘quvchiga ta’sirli yetkazilishini ham ta’minlagan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, biz tahlil qilgan bu tragediyadagi konfliktlar birinchidan, asar syujetining rivojlanish yo‘nalishini ta’minlasa, ikkinchidan, asardagi muhabbatning ulug‘lanishi faqat o‘sha davr uchun emas, balki, bugungi turmushimiz uchun eng muhim, o‘chmas mavzu hisoblanadi, chunki, qanday davr yoki sharoit bo‘lmasin inson, butun umri davomida faqat qalbidagi muhabbat tuyg‘ulari bilan o‘z turmushidan mazmun chiqaradi, agar muhabbatsiz yashasa, umri mazmunsiz o‘tgan bo‘ladi. Va, uchinchidan, buyuk ijodkor Shekspir qalamidan yaratilgan bu tragediya, yuqorida biz tahlil qilgan voqealardagi konfliktlarning badiiy tasvirlanishida ikki oshiq Romeo va Julyettaning muhabbatining haqiqiy haqiqati bilan o‘z yakunini topgan. Shunday qilib, "Romeo va Julyetta" tragediyasida konfliktning rivojlanishi undagi qahramonlarning keskin kurashlari asosida yaqqol aks etadi va unda yuz bergan keskinliklar bilan birga qahramonlarning ham obrazlari ochilib boradi. Yozuvchining bu tragediyani yuksak cho‘qqiga ko‘tarishining sababi ham, asardagi konfliktlarni mahorat bilan badiiy tasvirlab berganligi va muhabbatni ulug‘lashidan yaqqol ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. Yangi asr avlodi, Toshkent. 2015-yil.
2. Ахметов С. Әдебияттануы атамаларының қысқаша сөзлиги. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1972.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. "O‘zbekiston" nashriyoti, 2001.
4. Бехер И. Любовь моя, поэзия. Москва. «Художественная литература», 1965.
5. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. "O‘qituvchi" nashriyoti, 2005.
6. Uilyam Shekspir. Tanlangan asarlar. Toshkent. SMI-ASIA, 2009.
7. Járımbetov Q. Ádebiyattanıwdan sabaqlar. Nókis. "Qaraqalpaqstan", 2012.
8. Қарақалпақ тилинің түсиндирме сөзлиги. II том. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1984.